

TA'LIM TIZIMIDA KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Normurodova Karomat Jo'rayevna

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani MMTBga qarashli

33- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, kreativ tafakkurning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda ta'lim tizimidagi muhim psixologik vazifalar yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, kichik maktab yoshi, ijodkorlik, tafakkur, psixologik rivojlanish, motivatsiya, innovatsion ta'lim, bilish jarayonlari, psixologik yondashuv, shaxs rivojlanishi.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu davr bolaning bilish faoliyati va tafakkuri faol rivojlanadigan muhim bosqichdir.

Kreativ fikrlash — bu insonning muammolarga noodatiy yondashuvi, yangi g'oyalarni ilgari surishi va mustaqil yechim topa olish qobiliyatidir. Kreativ tafakkur o'quvchilarning intellektual rivojlanishi, ijodiy faoliyati va shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tabiatan qiziquvchan va faol

bo'ladilar. Shu sababli ta'lim jarayonida ularning ijodiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash va mustaqil fikrlashga undash muhim psixologik vazifa hisoblanadi.

Lev Vygotsky bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va hamkorlik faoliyatining ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikricha, bolalar kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida yangi bilim hamda ijodiy ko'nikmalarni egallaydilar. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratish zarur. O'qituvchi tomonidan beriladigan qo'llab-quvvatlovchi munosabat va ijobiy psixologik muhit bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish kreativ tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar yaratish, rolli o'yinlar, loyiha ishlari, mantiqiy topshiriqlar va ijodiy mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, san'at, musiqa, adabiyot va konstruktorlik faoliyatlari ham bolalarda kreativ qobiliyatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ranglar bilan ishlash, rasm chizish, hikoya tuzish va sahna ko'rinishlari tashkil etish bolalarning tasavvur doirasini kengaytiradi.

Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur konkret operatsiyalar bosqichida rivojlanadi. Shu sababli kreativ fikrlashni rivojlantirishda ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanish muhimdir. Maktab amaliyotchi psixologi o'quvchilarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini o'rganib, ularda ijodiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar va psixologik mashg'ulotlarni tashkil etishi lozim. Oiladagi sog'lom psixologik muhit ham kreativ fikrlash rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning bolani qo'llab-quvvatlashi, savollariga sabr bilan javob berishi va mustaqil fikrlashga imkon yaratishi bolaning ijodiy salohiyatini oshiradi.

Har bir o'sib kelayotgan yosh avlod vatan ertasi, kelajak umidi hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodga ham ma'nan, ham jismonan to'g'ri tarbiya berilsa, yurtning ravnaqi uchun, farovon jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lib yetishadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarining birida quyidagi fikrlarni keltiradilar. "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni - bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi" kabi jummalarni keltiradilar. Darhaqiqat, yoshlar bilimli, tarbiyali va ilm olishga tashna bo'lsa, vatan ertasi uchun

oʻzlarining beqiyos hissalarini qoʻshadilar. Yurtimizda yoshlar siyosatiga oid qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yoshlarning bilim olishi uchun, yanada yuksalishi uchun berilayotgan imkoniyatlarning chegarasi yoʻq. Har bir soha boʻyicha yangiliklar kiritilib, tubdan isloh qilinmoqda. Xususan taʼlim sohasida ham oʻzgarishlar, yangilanishlar kun sayin ortib borayotgani sir emas. XXI asr yoshlarini zamon talablariga mos holda fikrlaydigan qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda sinf rahbarining oʻrni beqiyosdir. Kreativ fikrlash oʻzi nima? degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Kreativlik (ing "create -yaratish, "creative-yaratuvchi, ijodkor) kabi maʼnolarni anglatadi. Kreativ fikrlash bu -odatiy fikrlardan tubdan farq qilgan, noodatiy jihatlari koʻp boʻlgan fikr, mulohazalar yigʻindisi. Kreativ fikrlash jamiyatning yuksalishi, taraqqiy topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchisini oldidagi asosiy vazifasi boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kreativ fikrlash koʻnikmasini shakllantirib borishdir. Darsda oʻtiladigan har bir mavzudagi savol va topshiriqlarga muammo tariqasida noodatiy yondashish. Dars yakunida oʻquvchilarda paydo boʻladigan turli savollarga oʻquvchilar ishtirokidan kelib chiqqan holda javob topish. Oʻquvchilar fikr va xulosalarini diqqat bilan tinglash orqali oʻqituvchi, oʻquvchilarida fikrlash qobiliyatini shakllanishiga muvaffaq boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga dastlabki paytdanoq erkin fikrlashga oʻrgatilsa, keyinchalik kreativ fikrlash qobiliyatlari ham asta-sekinlik bilan rivojlana boshlaydi. Har qanday vaziyatda ham boshlangʻich sinf oʻqituvchisi oʻquvchilarining fikrlarini tinglang bilishi, ularni inobatga olishi zarur. Ushbu jarayon orqali oʻquvchilarni oʻziga boʻlgan ishonchlarini oshirishga erishish mumkin.

Boshlangʻich sinflarda dars jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar va turli qiziqarli metodlardan foydalangan holda tashkil etishning ahamiyati katta. Oʻquvchilarni jamoa boʻlib ishlashga oʻrgatish orqali ularni darsga boʻlgan qiziqishini oshirishga erishiladi. Bugungi kunda taʼlim tizimimizda, dars jarayonlarida "Aqliy hujum", "Tarmoqlar", "Sinkveyn", "BBB" kabi zamonaviy texnologiyalar qoʻllanilmoqda. Ushbu metodlar va

texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bugungi kunda ta'lim jarayonida turli interfaol metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayonlarida qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kundan kun oshib bormoqda. An'anaviy dars turidan biroz chekingan holda, noan'anaviy darslar tashkil etilsa, o'quvchilarda fanga bo'lgan muhabbat va dars jarayonlariga bo'lgan qiziqishni oshirishga erishish mumkin. Noodatiy darslar orqali o'quvchida ko'proq izlanish va o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Yakuniy xulosalarni keltirib chiqarishga o'rganadilar. Kreativ fikrlash jamiyatning yuksalishida muhim ro'l o'ynaydi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mushohada yuritish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi.

Ijodkorlik bu yaratish demakdir. Yaratish -ixtirodir. Insoniyat tomonidan kashf qilingan ixtirolar, butun jamiyat yutug'idir. Kreativ fikrlash orqali, dars jarayonlaridan kelib chiqadigan qoida va xulosalarni o'quvchilarga yodlatish emas, balki izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali mustahkam bilim egallashlariga erishish mumkin.

Xalqaro baholash tadqiqotlari doirasida ham o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ilgari suriladi. Topshiriqlar mazmunida ham kreativ fikrlash aks etgan. Xalqaro baholash tadqiqotlari o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Turli muammoli vaziyatlarni turlicha yechimini izlashga undaydi. Tajriba va ko'nikma hosil bo'ladi. Dars jarayonlarida o'qituvchi, o'quvchilarga turli muammoli savollar bilan ko'proq murojaat etishi lozim. Bu kabi savollar bolani fikrlarini teran bo'lishiga asos bo'ladi. Masalan tabiiy fan darslarida o'qituvchi, hayotiy va kundalik turmush tarzida duch kelinayotgan muammolarga bolaning fikr mulohazalarini bilishga erishish mumkin. "Suvni qanday tejashimiz mumkin?", "Tabiatni qanday asrashimiz mumkin?" kabi global mavzularda ham o'quvchining shaxsiy fikrlari o'rganilishi lozim.

Nafaqat tabiiy fan darslarida, balki boshqa fanlarda ham shu kabi usullardan foydalanish o'zining yaxshi samarasini beradi. Matematika darslarida o'quvchilarga mavzu bo'yicha kelib chiqadigan qoida va qonuniyatlarni mazmunini o'quvchi ongiga

singdirish orqali dars samaradorligining yuqori bo'lishiga erishiladi .Qoida va qonuniyatlarni shunchaki o'quvchiga yodlatish emas , balki undan kelib chiqadigan mazmunini izohlab, tushuntirish lozim.Ko'plab turli qiziqarli boshqotirmalar , mantiqiy misol va masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllanishiga turtki bo'ladi.

O'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun , nafaqat dars jarayonlarida, balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham ular bilan tizimli ishlash zarur.Har haftada hech bo'lmaganda bir marotaba boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida shaxmat, shahska bo'yicha musobaqalar tashkil etilsa , ularning kreativ fikrlash qobiliyatlari va umuman olganda fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.Maktablarda shaxmat, shahska bo'yicha to'garaklar tashkil etish orqali , o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni vujudga keltirishga erishish mumkin.

Kreativ fikrlashda tasavvur olami juda katta ahamiyatga ega . Albert Eynshteyn "Tasavvur -bilimdan muhim " degan jummalarni keltirgan . Darhaqiqat, tasavvur olami yaxshi rivojlangan insonlarda kreativ fikrlash yuqori darajada rivojlangan bo'ladi.Tasavvur olamini kengayishida esa kitob mutolaasining o'rni beqiyos.O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish , ularning tasavvur doirasini kengayishiga olib keladi.Kreativ fikrlash orqali inson turli muammoli vaziyatlardan oqilona va takrorlanmas yo'llar bilan osonlik bilan chiqib ketishga erishadi .O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasi shakllansa , u kelajakda turli innovatsion g'oyalar yarata oladi.Har bir yangi innovatsion g'oyalar kreativ fikrlash natijasida yuzaga keladi . O'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish natijasida , turli murakkab va global muammolarga noodatiy yechim topish imkonini beradi .Har bir jamiyat yangi va takrorlanmas g'oyalar ta'sirida rivojlanadi va taraqqiyot etadi .Yoshlarni zamon talablariga mos qilib tarbiyalashda pedagog rahbarlarning hissasi beqiyosdir.

Kreativ fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchilarida bosqichma-bosqich shakllanadi.Ayrim o'quvchilarda bunday qobiliyat tug'ma ravishda bo'lsa, ayrimlarida esa keyinchalik orttirilgan bo'ladi.O'sib kelayotgan yosh avlodga nafaqat ta'lim

muassasalarida , balki oilada ham e'tibor bo'lishi lozim .Ota-onaning bolasiga bo'lgan e'tibori va muntazam ravishda berib boradigan motivatsiyasi ham uning kelajakda komil va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishiga ko'mak beradi.

Xalqimizda "Bola boshidan" degan naql bor.Har bir bolani yoshligidanoq to'g'ri tarbiyalab borsa, u kun kelib vatani uchun kerakli kadr bo'lib yetishadi. Hozirda maktabgacha ta'lim davridanoq bolani to'g'ri yo'naltirib borilmoqda.Bolalar dastlabki sodda tushunchalarini maktabgacha ta'lim davridanoq egallab borishmoqda .Dastlabki tushunchalar bola uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi .Bola dastlabki muhim va sodda tushunchalarni boshlang'ich sinfdan o'zlashtiradi. Mana shu davr har bir bola uchun katta ahamiyat kasb etadi. Yaxshi berilgan bilim kelajakda o'z samarasini ko'rsatadi. Endiki paytda pedagoglardan o'zlarining ustilarida tinimsiz ishlashlari va tajribalarini muntazam oshirib borishlari talab etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim psixologik vazifalaridan biridir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va ijobiy psixologik muhit orqali bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuv ko'nikmalarini samarali shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lev Vygotskyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi.
2. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi.
3. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent, 2019.
4. "Kreativ fikrlash " o'quv qo'llanma .Buxoro -2022
5. G.S.Narzullayeva "Kreativ fikrlash" .
6. M.E.Jumayev , Z .G'.Tadjiyev "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" 4.Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz "

7. Ziyonet